

**BANK TIZIMIDA KORRUPSIYAVIY XAVF-XATARLARNI ANIQLASH
VA BARTARAF ETISHDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASINING
AHAMIYATI**

Eshboyev Shaxboz G‘ayrat o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti, 1-kurs magistri

E-pochta: eshboyevshahboz847@gmail.com

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada bank-moliya sohasidagi barqarorlikka salbiy ta’sir qiluvchi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni olidini olishda xalqaro standartlar va rivojlangan davlatlar (Singapur, AQSH, Germaniya) tajribasini qo‘llashning dolzarb masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida bank tizimidagi xavflarning iqtisodiy o‘rishga ta’siri, agentlik va legetimlik nazariyalari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, O‘zbekiston bank sektorida 2024-2025-yilhlarda amalga oshirilayotgan raqamli transformatsiya jarayonlari, manfaatlar to‘qnashuvini deklaratsiyalash tizimi va sun’iy intellekt texnologiyalarining korrupsiyani oldindan aniqlashdagi o‘rni statistik ma’lumotlar asosida yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** bank tizimi, korrupsiyaviy xavf-xatarlar, Singapur modeli, komplayens-nazorat, ISO 37001, raqamlashtirish, manfaatlar to‘qnashuvi, sun’iy intellekt.*

KIRISH

Bank tizimi har qanday davlat iqtisodiyotining strategik tayanchi hisoblanadi. U nafaqat pul resurslarini jamlash va qayta taqsimlash vazifasini bajaradi, balki investitsiya muhiti, tadbirkorlik faolligi, moliyaviy intizom va ijtimoiy ishonchni shakllantiradi. Shu sababli bank tizimida yuzaga keladigan korrupsiyaviy xavf-xatarlar faqat alohida bank yoki mansabdor shaxs darajasidagi muammo bo‘lib qolmaydi, balki butun moliyaviy tizim barqarorligiga tahdid soladi. Basel qo‘mitasining banklar uchun korporativ boshqaruv tamoyillarida ham samarali korporativ boshqaruv bank sektori va umuman iqtisodiyotning to‘g‘ri

ishlashi uchun hal qiluvchi omil ekani alohida ta'kidlangan. 2024-yilda yangilangan Basel Core Principles esa bank nazoratida korporativ boshqaruv, risk madaniyati, nazorat muhiti va shaffoflikka bo'lgan talablarni yanada kuchaytirdi¹.

M. Jensen va W. Meckling o'zlarining mashhur tadqiqotida agentlik xarajatlari boshqaruv bilan mulkdor manfaatlarini o'rtasidagi tafovutdan kelib chiqishini ko'rsatgan. Bank tizimiga tatbiqan olganda, bu yondashuv rahbariyat, kredit qo'mitalari, ichki nazorat bo'linmalari va aksiyadorlar yoki davlat manfaatlarini o'rtasida ziddiyat paydo bo'lishi mumkinligini anglatadi². Agar ushbu tafovut ustidan nazorat bo'lmasa, manfaatlar to'qnashuvi, qaror qabul qilishdagi subyektivlik va korrupsion kelishuvlar uchun qulay muhit yuzaga keladi.

Moliyaviy sektorda korrupsiyaga oid keng ilmiy adabiyotlar mavjudligini hisobga olgan holda (Bahoo, 2020), tahlillar doirasida korrupsiya tushunchasiga qanday mazmun yuklayotganini aniq belgilab olish muhimdir. Pellegrini (2011) tomonidan korrupsiya tushunchasiga shunday ta'rif beradi, unga ko'ra korrupsiya bu *“xususiy manfaat yo'lida ishonib topshirilgan vakolatdan noto'g'ri foydalanish”* bo'lib, u quyidagicha ifodalanadi: shaxsiy manfaat, yaqin qarindoshlar, xususiy guruh yoki moddiy va maqomga oid foyda orttirish maqsadida shaxsga yuklatilgan rasmiy vazifalardan chetga chiqish; yoxud muayyan turdagi xususiy manfaatlar ta'sirini amalga oshirishga qarshi belgilangan qoidalarni buzish. Bunga quyidagi xatti-harakatlar kiradi:

– pora berish (ishonchli lavozimdagi shaxsning qarorini buzish yoki unga ta'sir qilish uchun mukofot berish);

¹ Corporate governance principles for banks. 08.07.2015. <https://www.bis.org/bcbs/publ/d328.htm>

² Jensen, M. C., & Meckling, W. H. (1976). Theory of the firm: Managerial behavior, agency costs and ownership structure. *Journal of Financial Economics*.

- nepotizm (xizmat yoki imtiyozlarni malaka asosida emas, balki qarindoshlik aloqalari asosida taqdim etish);
- o‘zlashtirish (davlat resurslarini noqonuniy ravishda xususiy manfaat yo‘lida egallash)³.

Mavzuni legitimlik nazariyasi orqali ham izohlash mumkin. M. Suchman legitimlikni tashkilot faoliyatidagi ijtimoiy normalar, qadriyatlar va kutishlarga mos deb qabul qilinishi bilan bog‘laydi. Bank tizimi uchun bu juda muhim: agar jamiyat banklarni shaffof, xolis va adolatli institut deb qabul qilmasa, ularning iqtisodiy funksiyasi ham zaiflashadi⁴. Demak, korrupsiyaga qarshi kurash faqat jinoyatning oldini olish emas, balki bank sektorining ijtimoiy legitimligini mustahkamlash masalasidir.

Shu nuqtai nazardan, xalqaro standartlar bank tizimidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni boshqarishning metodologik asosini beradi. BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi davlatlardan xususiy sektorda, shu jumladan moliyaviy institutlarda, korrupsiyaning oldini olish choralarini ko‘rishni talab qiladi; unda buxgalteriya va audit standartlari, ichki nazorat va shaffoflikni kuchaytirish muhim yo‘nalish sifatida qayd etilgan. “Pora berishga qarshi boshqaruv tizimlari — Qo‘llash bo‘yicha ko‘rsatmalar bilan talablar” xalqaro standarti (ISO 37001:2025) esa poraxo‘rlikka qarshi boshqaruv tizimini yaratish, joriy etish, qo‘llab-quvvatlash va takomillashtirish uchun aniq talablar beradi⁵. FATF bank sektorida riskka asoslangan yondashuvni markaziy prinsip sifatida belgilaydi, ya’ni banklar xavfni aniqlashi, baholashi, tushunishi va unga mutanosib choralar ko‘rishi kerak.

³ De Andrés P., Polizzi S., Scannella E., Suárez N. Corruption-related disclosure in the banking industry: Evidence from GIPSI countries // ECGI Working Paper Series in Finance. – 2021.

⁴ Suchman, M. C. (1995). Managing legitimacy: Strategic and institutional approaches. *Academy of Management Review*

⁵ United Nations Office on Drugs and Crime. (2004). *United Nations Convention against Corruption*. United Nations.

O‘zbekiston sharoitida mazkur masala ayniqsa dolzarbdir. Chunki bank tizimini raqamlashtirish, ichki nazoratni kuchaytirish, manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish va komplayens-nazorat institutini rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar aynan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish bilan chambarchas bog‘liq. Shu sababli xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganish nazariy qiziqish emas, balki amaliy zaruratdir.

ASOSIY QISM

Bank tizimidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlar, odatda, bir necha yo‘nalishda namoyon bo‘ladi: kredit ajratish jarayoni, muammoli aktivlar bilan ishlash, xarid va kontrakt tizimi, kadrlar siyosati, bank ichidagi ma’lumotlardan foydalanish va uchinchi tomonlar bilan munosabatlar, ayniqsa kreditlashda qaror qabul qilishning murakkab va ko‘p bosqichli bo‘lishi korrupsion ta’sir ehtimolini oshiradi. Agar bankda ichki nazorat zaif, vakolatlar noaniq va qarorlar asoslantirilmagan bo‘lsa, resurslar iqtisodiy samaradorlik asosida emas, shaxsiy aloqalar yoki yashirin manfaat asosida taqsimlanishi mumkin. Bu holat agentlik nazariyasi bilan to‘liq mos tushadi: boshqaruvchi shaxs tashkilot maqsadidan chekinib, o‘z manfaatini ustun qo‘yadi⁶.

Mazkur xavflarni boshqarishda xalqaro standartlar ichida, avvalo, Basel tamoyillari alohida o‘rin tutadi. Basel qo‘mitasi korporativ boshqaruvning asosiy elementlari sifatida kuzatuv kengashi mas’uliyati, ichki nazorat muhiti, risklarni boshqarish, etik madaniyat va shaffof qaror qabul qilishni ko‘rsatadi. 2024-yilgi yangilangan Basel Core Principles esa nazorat organlaridan banklarda kuchli korporativ boshqaruv, qadriyatlar, nazorat muhiti va rahbariyat javobgarligini baholashni talab qiladi. Bu shuni anglatadiki, bank tizimidagi korrupsiyaga qarshi

⁶ Jensen, M. C., & Meckling, W. H. (1976). Theory of the firm: Managerial behavior, agency costs and ownership structure. *Journal of Financial Economics*.

kurash endilikda faqat jinoyatni fosh etish masalasi emas, balki korporativ boshqaruv sifati masalasiga aylangan.

Singapur tajribasi mazkur yondashuvning amaliy namunasidir. Bu davlatda korrupsiyaga qarshi siyosat, siyosiy iroda, qat'iy javobgarlik va yuqori institutsional intizomga tayangan holda qurilgan. Singapurda ISO 37001 milliy darajada ham ommalashtirilgan bo'lib, Korrupsion amaliyotlarni tergov qilish byurosi ushbu standartni poraxo'rlikka qarshi komplayens dasturlarini takomillashtirishga xizmat qiluvchi ixtiyoriy, ammo global e'tirof etilgan vosita sifatida tavsiflaydi. Singapur modelining bank sohasi uchun eng muhim sabog'i shundaki, tizim korrupsiyaga "munosabat bildirish" bilan cheklanmaydi, balki uni oldindan cheklaydigan qoidalar va amaliyotlar majmuini yaratadi⁷.

AQSH tajribasida esa asosiy urg'u komplayens-nazorat va ichki xabar berish mexanizmlariga qaratilgan. Bu yerda korrupsiyaga qarshi boshqaruv faqat yuridik departamentning vazifasi emas, balki butun tashkilotning risk-boshqaruv modeli sifatida ishlaydi. Wolfsberg guruhi 2023-yilda moliyaviy xizmatlar sohasi uchun yangilangan Anti-Bribery and Corruption Compliance Programme Guidance'ni e'lon qilib, moliya institutlarida poraxo'rlik va korrupsiyaga qarshi dastur riskka asoslangan bo'lishi, rahbariyat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, uchinchi tomonlar bilan aloqalarni qamrab olishi va etik biznes madaniyatini mustahkamlashi kerakligini qayd etdi⁸. Bu hujjat banklar uchun amaliy qo'llanma sifatida juda muhimdir, chunki u umumiy tamoyillarni bank amaliyotiga yaqinlashtiradi.

AQSH va umuman xalqaro moliya amaliyotida FATFning riskka asoslangan yondashuvi ham muhim ahamiyatga ega. FATFga ko'ra, banklar o'zlari duch

⁷ <https://www.cpib.gov.sg/research-room/publications/ss-iso-37001>

⁸ Publication of the Wolfsberg ABC Guidance. 17.04.2023. <https://wolfsberg-group.org/news/publication-of-the-wolfsberg-abc-guidance>

kelayotgan pul yuvish va terrorizmni moliyalashtirish xavflarini aniqlashi, baholashi va tushunishi, soʻngra xavf darajasiga mos kamaytirish choralarini qoʻllashi kerak. Bu yondashuvni korrupsiyaviy xavf-xatarlarga ham tatbiq etish mumkin: barcha mijozlar, barcha operatsiyalar yoki barcha boʻlimlarga bir xil koʻz bilan qarash samara bermaydi. Aksincha, yuqori xavfli segmentlar — yirik kreditlar, murakkab mulk tuzilmalari, manfaatdor shaxslar bilan bogʻliq operatsiyalar, uchinchi tomon vositachilar — chuqurroq monitoring qilinishi lozim. FATFning beneficial ownership boʻyicha yangilangan standartlari ham aynan korrupsion daromadlarni yashirishda foydalaniladigan murakkab yuridik tuzilmalarni ochishga qaratilgan⁹.

Germaniya tajribasi bank tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirishda huquqiy aniqlik va protsessual intizomning oʻrni beqiyos ekanini koʻrsatadi. Bu tajribadan chiqadigan asosiy xulosa shuki, ichki nazorat faqat umumiy shior darajasida boʻlmasligi kerak; u vakolatlar taqsimoti, tasdiqlash bosqichlari, audit izlari, manfaatlar toʻqnashuvini aniqlash va hisobot berish kabi aniq mexanizmlarda ifodalanishi zarur. OECDning manfaatlar toʻqnashuvini boshqarish boʻyicha koʻrsatmalarida ham manfaatlar toʻqnashuvi har doim korrupsiya emasligi, biroq u korrupsion xulq-atvor uchun salmoqli xavf omili ekani qayd etiladi. Shu bois manfaatlar toʻqnashuvini erta aniqlash korrupsiyaning oldini olishdagi eng muhim preventiv vositalardan biridir.

ISO 37001:2025 ning ahamiyati ham aynan shunda koʻrinadi. Ushbu standart poraxoʻrlikka qarshi boshqaruv tizimini yaratishda risklarni baholash, due diligence, moliyaviy va nomoliyaviy nazoratlar, xabar berish kanallari, tekshiruv,

⁹ Financial Action Task Force. (2014). Guidance for a risk-based approach: The banking sector. SJIF: 5.051

rahbariyatning yetakchiligi va doimiy takomillashtirishni talab qiladi¹⁰. Bank sektori uchun bu juda qulay model, chunki u korrupsiyani faqat jinoyat-huquqiy muammo sifatida emas, balki boshqaruv, komplayens va operatsion risk nuqtai nazaridan ham ko‘rishga imkon beradi. ISO‘ning rasmiy tavsifida ushbu standart poraxo‘rlikning oldini olish, uni aniqlash va unga javob qaytarish hamda tashkilotning tegishli anti-bribery majburiyatlariga rioya etishiga yordam berishi aytiladi.

Raqamlashtirish va sun‘iy intellekt texnologiyalarining roli ham tobora ortib bormoqda. Bu yerda gap shunchaki xizmatlarni onlayn ko‘rinishga o‘tkazish haqida emas, balki korrupsiyaviy xavfni keltirib chiqaradigan inson omilini qisqartirish haqida ketmoqda. Elektron kredit skoring, avtomatik monitoring, masofaviy identifikatsiya, audit izlarini saqlash va shubhali operatsiyalar bo‘yicha algoritmik tahlil bank ichidagi yashirin ta’sirlarni aniqlash imkonini kengaytiradi. OECD 2026-yilgi Anti-Corruption and Integrity Outlook hisobotida ham monitoring sifati, ko‘rsatkichlar tizimi va amaliy ijro zaif bo‘lsa, hatto qog‘ozdagi eng yaxshi integritet siyosati ham sust natija berishini ko‘rsatadi. Bu xulosa O‘zbekiston bank sektori uchun ham juda dolzarbdir.

Shunday qilib, xorijiy tajriba bir necha qatlamli yondashuvni taklif etadi: birinchisi — kuchli korporativ boshqaruv va nazorat muhiti; ikkinchisi — riskka asoslangan komplayens-nazorat; uchinchisi — manfaatlar to‘qnashuvini erta boshqarish; to‘rtinchisi — xalqaro anti-bribery standartlarini joriy etish; beshinchisi — raqamlashtirish va ma’lumotlarga asoslangan preventiv tahlil. Ana shu elementlar bir-biridan alohida emas, balki yagona tizim sifatida ishlaganda bank tizimidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlar sezilarli kamayadi.

¹⁰ ISO 37001:2025. <https://www.iso.org/standard/37001>.
SJIF: 5.051

XULOSA

O'rganilgan manbalar va xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, bank tizimidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlar tasodifiy yoki faqat alohida xodimning axloqiy nuqsoni natijasi emas. Ular ko'pincha tizim ichidagi institutsional zaifliklar, nazorat bo'shliqlari, manfaatlar to'qnashuvining yashirilishi, shaffoflikning yetarli emasligi va boshqaruvdagi nomutanosibliklardan kelib chiqadi. Shu ma'noda, korrupsiyaga qarshi samarali siyosat jazolashdan ko'ra ko'proq oldini olishga, aniqlashdan ko'ra ko'proq risklarni boshqarishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Aynan shu yondashuv Basel, FATF, UNCAC, OECD va ISO kabi xalqaro institutlar hujjatlarida ham kuzatiladi¹¹.

Singapur, AQSH va Germaniya tajribasi o'zaro farq qilsa-da, ularni birlashtiruvchi umumiy jihat bor: korrupsiyaga qarshi kurash bank tizimida faqat repressiv siyosat emas, balki boshqaruv sifati mezon sifatida qaraladi. Singapur tajribasi siyosiy iroda va institutsional intizomni, AQSH tajribasi komplayens-nazorat va ichki xabar berish mexanizmlarini, Germaniya tajribasi esa huquqiy aniqlik va protsessual barqarorlikni ustuvor qo'yadi. Demak, samarali model bitta vositaga emas, bir-birini to'ldiradigan mexanizmlar majmuiga tayangan holda quriladi.

O'zbekiston bank tizimi uchun bundan kelib chiqadigan eng muhim xulosa shuki, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish bo'yicha islohotlar uch yo'nalishda parallel olib borilishi lozim. Birinchidan, banklarda korporativ boshqaruv va ichki nazoratning haqiqiy sifati oshirilishi zarur. Ikkinchidan, komplayens-nazorat bo'linmalari formallikdan chiqarilib, real vakolatga ega, mustaqil va riskka asoslangan tarzda ishlaydigan tuzilmaga aylantirilishi kerak.

¹¹ International Monetary Fund. (2024). 2024 Revised Basel Core Principles for Effective Banking Supervision: Executive Summary. IMF Policy Paper.

Uchinchidan, raqamlashtirish va sun'iy intellekt vositalari aynan yuqori xavfli operatsiyalar, manfaatlar to'qnashuvi va shubhali bog'liqliklarni erta aniqlash uchun moslashtirilishi lozim.

Shuningdek, manfaatlar to'qnashuvini deklaratsiyalash va haqiqiy benefisiar mulkdor (beneficial ownership) shaffofligi bank tizimi uchun alohida ustuvor yo'nalish bo'lishi kerak. OECD bu institutni korrupsiya uchun muhim xavf maydoni sifatida ko'radi, FATF esa murakkab yuridik tuzilmalar ortiga yashiringan real manfaatdor shaxslarni aniqlashni moliyaviy jinoyatlarga qarshi kurashning markaziy elementi deb biladi. Bank amaliyotida bu kreditlash, affillangan shaxslar bilan bitimlar, vositachilar va katta xaridlar bo'yicha tekshiruvlarni yanada chuqurlashtirish zarurligini anglatadi.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, bank tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va bartaraf etishda xorijiy davlatlar tajribasi O'zbekiston uchun tayyor ko'chiriladigan model emas, balki yo'nalish beruvchi metodologik asosdir. Uni milliy yurisdiksiya sharoitga moslashtirish, xususan Basel tamoyillari, FATFning riskka asoslangan yondashuvi, ISO 37001 anti-bribery tizimi, OECDning manfaatlar to'qnashuvini boshqarish standartlari va UNCACning preventiv talablari bilan uyg'unlashtirish bank sektorida shaffoflik, hisobdorlik va jamoatchilik ishonchini sezilarli kuchaytiradi. Aynan shunda bank tizimida korrupsiyaga qarshi kurash "quruq shior" emas, balki amaliy natija beradigan boshqaruv mexanizmiga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Xalqaro normativ-huquqiy hujjatlar va standartlar

1. United Nations. Convention against Corruption (UNCAC). – New York, 2003.
2. Basel Committee on Banking Supervision. Core Principles for Effective Banking Supervision. – Basel, 2024.
3. Financial Action Task Force. International Standards on Combating Money Laundering and the Financing of Terrorism. – Paris, 2012 (updated 2023).
4. International Organization for Standardization. ISO 37001: Anti-bribery management systems – Requirements with guidance for use. – Geneva, 2025.
5. Organisation for Economic Co-operation and Development. Managing Conflict of Interest in the Public Sector. – Paris, 2005.

II. Ilmiy adabiyotlar

6. Michael C. Jensen, William H. Meckling. Theory of the Firm: Managerial Behavior, Agency Costs and Ownership Structure. – Journal of Financial Economics, 1976.
7. Mark C. Suchman. Managing Legitimacy: Strategic and Institutional Approaches. – Academy of Management Review, 1995.

III. Xalqaro tashkilotlar hisobotlari va tadqiqotlari

8. International Monetary Fund. Governance and Anti-Corruption in the Financial Sector. – IMF Policy Paper, 2024.
9. World Bank. Enhancing Government Effectiveness and Transparency: The Fight Against Corruption. – Washington, 2020.
10. Wolfsberg Group. Anti-Bribery and Corruption Compliance Programme Guidance. – 2023.